

## UMUMTA'LIM MAKTABLARINI MOLIYALASHTIRISHDA TASHABBUSLI BUDGETLASHTIRISHDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI

### IMPORTANT ASPECTS OF USING PARTICIPATORY BUDGETING IN FINANCING GENERAL EDUCATION SCHOOLS

***Sharapova Mashhura  
Azadovna***

*<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi dotsenti, PhD.*

*G-mail: [sharapovamash@gmail.com](mailto:sharapovamash@gmail.com) ORCID: 0009-0004-0345-5171*

#### Annotation

**Uzb.** - Mazkur maqolada umumta'lismaktablarini moliyalashtirish jarayonida tashabbusli budgetlashtirishning ahamiyati, mazkur jarayonda ta'limga muassasalarini ehtiyojlarini aniqlash hamda ularni manzilli moliyalashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tashabbusli budgetlashtirishning huquqiy asoslari va amaliyoti tahlil qilingan.

**Eng.** - This article highlights the importance of participatory budgeting in the financing process of general education schools, focusing on identifying the needs of educational institutions and ensuring their targeted financing within this process. Additionally, the legal foundations and practical implementation of participatory budgeting are examined.

#### Kalit so'zlar:

#### Keywords:

- ❖ *tashabbusli budgetlashtirish, ta'limga moliyalashtirish, maktab infratuzilmasi, mahalliy budjet, moddiy-texnik baza.*
- ❖ *participatory budgeting, education financing, school infrastructure, local budget, material and technical base.*

#### Kirish.

Ta'limga muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda zamonaviy talablarga mos ta'limga muhitini yaratish – ta'limga sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, davlat tomonidan umumta'lismaktablarini moliyalashtirishda tashabbusli budgetlashtirish mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tashabbusli budgetlashtirish orqali budjet mablag'larining shaffofligi ta'minlanib, ularning samarali va maqsadli sarflanishiga erishiladi. Bu jarayon jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, aholi ishtirokini ta'minlash orqali maktablardagi muammolarni aniqlash va hal etishga xizmat qildi. Shuningdek, davlat budgetidan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ta'minlanadi.

Budjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish hamda budjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan qonunchilik hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish maqsadida "Tashabbusli budgetlashtirish jarayonida faol ishtirok etgan hamda tashabbus ko'rsatgan fuqarolarni mukofotlash tizimini joriy etish" belgilandi [1].

Bu orqali aholining budjet jarayonlaridagi faolligini oshirishga erishiladi. Shuningdek, budjet bilan bog'liq ma'lumotlarning ochiqligi va jamoatchilik muhokamalari orqali davlat boshqaruvida shaffoflik ta'minlanadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mashhur siyosatshunoslar U. Gastil va R.Stoun tashabbusli budgetlashtirish fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishi hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishini ta'kidlaganlar [2].

F. Garsia fikriga ko'ra, tashabbusli budgetlashtirish jarayoni mahalliy hokimiyatlarda fuqarolar ishtirokini kuchaytirish bilan birga, resurslarni adolatli taqsimlashga yordam beradi [3].

Jamoatchilik faolligi va ijtimoiy kapital tushunchasini tadqiq qilgan iqtisodchi R.Patnem "Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy" nomli kitobida Italiyadagi demokratiya va jamoatchilik institutlarining rivojlanishi, shu jumladan, ijtimoiy kapitalning ahamiyatini batafsil o'rgangan va tashabbusli budgetlashtirish kabi fuqarolik ishtirokini talab qiluvchi jarayonlar ijtimoiy kapitalni rivojlantirishga yordam berishini va mahalliy boshqaruvdagi shaffoflik va mas'uliyatni kuchaytirishini qayd etgan [4].

Tashabbusli budgetlashtirish davlat moliyasining ochiqligini ta'minlashga xizmat qilib, aholi ishtirokini rag'batlantiradi. Voronin va Amonovlar tashabbusli budgetlashtirishning O'zbekistondagi ilk bosqichdagi natijalari, amaliyotdagi ta'sirlari va imkoniyatlari haqida to'xtalib, ushbu mexanizmni O'zbekistonda mahalliy darajadagi moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning yangi bosqichi deb ta'kidlaganlar [5].

D. Pulatov va X. Hamidovning tadqiqlarida rivojlangan davlatlarda tashabbusli budgetlashtirish dasturlari loyihalarni hamkorlikda moliyalashtirish va sohalar kesimida loyihalash amaliyotga asoslangan holda qo'llanilishini ta'kidlangan [6].

## Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rGANISH uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalilanigan.

## Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda tashabbusli budgetlashtirish jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin.

Ilk bosqich 2019-2020-yillarda amalgalashirilgan bo'lib, tashabbusli budget jarayonining ikkinchi (takomillashtirilgan) bosqichi 2021-yildan keyingi davrni qamrab oladi.

2019-yildan boshlab tuman va shaharlar budgetlarining qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi jamoatchilik, ya'ni fuqarolar fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga sarflash mexanizmi joriy etildi. Shuningdek, ushbu qaror bilan davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari, soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi belgilandi [7].

Shuningdek, 2022-yil 1-yanvardan boshlab respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli budgetlarning tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, 2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budgetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdorini 10 foizdan 30 foizga oshirish bo'yicha yangi tartib belgilandi [8].

2021-yil may oyidan boshlab 14 tuman va shaharlarda tajriba tariqasida tegishli budgetlarning tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu tajriba muvaffaqiyatli amalgalashirilgach, 2022-yil 1-yanvaridan boshlab respublikadagi barcha tuman va shaharlarga tatbiq qilingan.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budgetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi

hamda vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan mablag‘lar ham tashabbusli budgetlashtirishning moliyaviy manbalari hisoblanadi [9].

Endilikda tuman va shaharlar budgetlarida tashabbusli budget jarayoni uchun rejalashtirilgan mablag‘lar mavjud. Har yili tuman va shahar budgetida kamida 10, ko‘pi bilan 30 ta loyiha uchun yetarli mablag‘lar ajratiladi. Shuningdek, 10 tadan ortiq loyihalar uchun mablag‘lar tuman yoki shahar aholisining tegishli hududdagi aholi soni ulushidan kelib chiqib taqsimlanadi [10].

2022-yilda O‘zbekistonda tashabbusli budgetlashtirish doirasida fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalar tahlili ta’lim sohasi, xususan, umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash masalasiga aholi tomonidan katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalishda 19 486 ta loyiha taklif etilgan bo‘lib, umumiyligi loyihalar sonining 15 foizini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich ichki yo’llarni ta’mirlash (31 foiz) dan keyin ikkinchi o‘rinni egallab, umumta’lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilashga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlashga qaratilgan tashabbuslar ta’lim sifatini oshirish, o‘quv muhitini yaxshilash va bolalarning zamonaviy ta’lim

texnologiyalaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi. Fuqarolarning ushbu masalada faol ishtirok etishi ta’lim sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan jamoaviy harakatlar samaradorligini ko‘rsatadi. Xususan, mahalliy darajadagi ta’lim muassasalari holatini yaxshilash borasida fuqarolarning tashabbuslari o‘quv xonalari, fan laboratoriyalari, sport zallari va hududiy infratuzilmani takomillashtirishni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, tashabbusli budgetlashtirish mexanizmlarining joriy etilishi orqali fuqarolarning mahalliy ijtimoiy masalalarga daxldorligi kuchaydi, bu esa davlat hokimiyyati organlari va aholi o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Fuqarolarning ta’lim sohasidagi muammolarni o‘z tashabbuslari bilan bildirishi va ularni hal etishda moliyaviy ishtirokni ta’minlashi – ta’lim tizimida samarali boshqaruvni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

2022-yilda umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash yo‘nalishidagi tashabbuslarning yuqori ulushi fuqarolarning ta’lim sifatini oshirishga bo‘lgan talab va intilishini, shuningdek, tashabbusli budgetlashtirishning davlat-xalq hamkorligini mustahkamlashdagi muhim ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

### 1-jadval

**2021-2025-yillarda tashabbusli budgetlashtirish doirasida ajratilgan mablag‘lar  
(mln. so‘mda) [11]**

<i>Yil va mavsum</i>	<i>Respublika bo‘yicha</i>	<i>Toshkent shahri bo‘yicha</i>	<i>Yunusobod tumani bo‘yicha</i>
<b>2021-yil</b>	530 501	69 832	5 223
<b>2022-yil 1-mavsum</b>	1 201 281	92 450	7 590
<b>2022-yil 2-mavsum</b>	1 419 044	83 515	9 117
<b>2023-yil 1-mavsum</b>	2 882 889	161 472	22 018
<b>2023-yil 2-mavsum</b>	1 424 374	118 051	10 552
<b>2024-yil 1-mavsum</b>	3 373 306	212 089	24 204
<b>2024-yil 2-mavsum</b>	2 271 719	176 848	17 824
<b>2025-yil 1-mavsum</b>	3 359 784	234 512	22 727


2021-2025 yillar davomida tashabbusli budgetlashtirish doirasida respublika, Toshkent shahri va Yunusobod tumani bo'yicha aholining takliflari asosida ajratilayotgan mablag'lar sezilarli darajada o'sgani kuzatilmoxda.

2021-yilda respublika bo'yicha 530 501 mln. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2025-yilning 1-mavsumida bu ko'rsatkich 3 359 784 mln. so'mni tashkil etdi, ya'ni 6,3 barobar o'sish kuzatilgan.

Toshkent shahrida ushbu davr mobaynida mablag' ajratilishi 69 832 mln.

so'mdan 234 512 mln. so'mgacha ko'paygan. Yunusobod tumanida esa 2021-yilda 5 223 mln. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2023-yil 1-mavsumida subu ko'rsatkich 22 018 mln. so'mga, 2025-yil 1-mavsumida esa 22 727 mln. so'mga yetgan.

Yunusobod tumanidagi o'sish dinamikasi aholining tashabbusli budget jarayonlaridagi ishtirokini faollashganini, mahalliy ehtiyojlarga e'tibor kuchayganini va ta'lim hamda infratuzilma sohalaridagi loyihalarga ustuvorlik berilganini ko'rsatadi.



**1-rasm. 2021-2025 yillarda Yunusobod tumani bo'yicha tashabbusli moliyalashtirish asosida umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlashga sarflangan mablag'lar to'g'risida ma'lumot, mln. so'mda [11]**

2021-2025-yillar davomida Yunusobod tumanida tashabbusli budgetlashtirish orqali umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlashga ajratilgan mablag'larda barqaror o'sish kuzatilmoxda. Agar 2021-yilda bu ko'rsatkich atigi 300 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi mavsumiga kelib, ajratilgan mablag'lar hajmi 22 727 mln. so'mga yetgan. Bu esa ushbu yo'nalishga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman, tahlil qilingan davr mobaynida Yunusobod tumanidagi umumta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan mablag'larning ortishi, joriy etilayotgan tashabbusli budgetlashtirish amaliyotining

samaradorligini tasdiqlaydi. Bu tashabbuslar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

### Xulosa va takliflar.

Tashabbusli budgetlashtirish maktablarni ta'mirlash va jihozlashda qo'shimcha mablag'larni jalb etish uchun samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda moliyalashtirishning shaffofligi, jamoatchilikning faolligi va innovatsion yechimlarni joriy etish ta'lim muassasalarini infrastrukturasini yaxshilashga olib keladi. O'zbekistonda maktablarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun tashabbusli budgetlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Xalqaro tajribalardan foydalanish ta'lim muassasalarini

uchun barqaror moliyalashtirish manbalarini yaratish va ta'lim sifat hamda imkoniyatlarini yaxshilashga zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 2021–2025-yillar mobaynida Yunusobod tumanida umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun ajratilayotgan tashabbusli budget mablag'larining muttasil o'sishi ta'lim sohasida samarali moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilayotganini hamda jamoatchilik nazoratining kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tashabbusli budgetlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun umumta'lim muassasalari holatini baholashga oid aniq, shaffof va umumiy mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Jamoatchilik ishtirotini institutsional shakllantirish maqsadida fuqarolarning fikrini to'plash, ovoz berish va loyiha ustuvorligini aniqlash jarayonlariga raqamli platformalarni keng joriy etish tavsiya etiladi. Moliyalashtirilgan loyihalarning ijrosi ustidan doimiy monitoring va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shu jumladan natijalarni baholash tizimini yo'lga qo'yish samaradorlikni oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y., 12 maqsad.
2. Gastil, J., & Peppel, R. (2018). *Participatory Budgeting and Civic Engagement: Theoretical and Empirical Perspectives*. In *The Oxford Handbook of Deliberative Democracy*. Oxford University Press. DOI: 10.1093/oxfordhb/9780198747369.013.61.
3. Fundora García, Y. (2020). *Participatory Budgeting: A Tool to Promote Social Justice in Local Governance*. Revista de Administração Pública, 54(2), 231–249.
4. Putnam, R. D. (1993). *Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy*. Princeton University Press.
5. Воронин, С. А., Амонов, Р. Н. (2021). Инициативное бюджетирование на местном уровне: первые шаги нового механизма финансирования в Узбекистане. Рынок, деньги и кредит, (7), 25–30.
6. Пулатов, Д., Хамидов Х. (2022). Анализ экономических реформ, направленных на развитие системы «инициативное бюджетирование». Справочник финансового работника. Бюллетень, (4) [124], 56–57.  
<http://tcmf.uz/ru/pages/view?q=%2Fpages%2Fview&slug=spravochnik-finansovogo-rabotnika-4-aprel-2022>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22-avgustdagи «Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning ishtirotini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirotini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5072-son Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining “Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida”gi KQ-666- IV-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom, 30.01.2024-yil.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida KQ-34-V-son qarori, 13.01.2025-yil.
11. <https://openbudget.uz> - Ochiq budget portalı.